

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



The
Education
University



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Science Uzbekistan INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA
ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025

The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.
adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

CONGRESS ID

TITLE OF CONGRESS

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV
"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND
EDUCATION"

PARTICIPATION

Keynote & Invited

DATE - PLACE

April 08-10, 2025

Chirchik, Uzbekistan

EDITORS

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

ORGANIZATION

Chirchik State Pedagogical University

&

İKSAD-Institute of Economic Development and Social Researches

HONORARY BOARDS

Prof. Dr. Gafurdjan Muxamedov (Rector of CHDPU)
Dr. Mustafa Latif Emek (President of İKSAD Institute)

BOLALARDA NUTQ BUZILISH SABABLARI VA ULARNI TUZATISH USULLARI

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

CHDPU, Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0001-1670-7890>

Olimova Zuhraxon Muhiddin qizi

CHDPU, Maxsus pedagogika/logopediya

II bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari, ularning asosiy sabablari va belgilari hamda samarali korreksion usullari tahlil qilinadi. Nutq buzilishlari bolaning ijtimoiy moslashuvi, ta'lif jarayoni va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga erta tashxis va erta logopedik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ko'rib chiqiladi. Maqolada logopedik mashqlar, psixologik yondashuvar va innovatsion terapiya usullari haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari nutq muammolarini hal qilishda ota-onalar, pedagoglar va logopedlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: nutq, ontogenez, etiologiya, asfiksia, dislaliya, nutq buzilishlari, logoped, tuzatish ishlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье будут проанализированы речевые нарушения, встречающиеся у детей, их основные причины и симптомы, а также эффективные методы коррекции. Речевые нарушения могут негативно сказаться на социальной адаптации, учебном процессе и психологическом состоянии ребенка. Однако считается, что ранняя диагностика и ранний логопедический подход становятся все более важными. В статье представлена информация о логопедических упражнениях, психологических подходах и инновационных методах терапии. Результаты исследования могут быть полезны родителям, педагогам и логопедам при решении речевых проблем.

Ключевые слова: речь, онтогенез, этиология, асфиксия, дислалия, нарушения речи, логопед, коррекционная работа.

ABSTRACT

This article will analyze speech disorders that occur in children, their main causes and symptoms, as well as effective methods of correction. Speech disorders can negatively affect a child's social adaptation, learning process, and psychological state. However, it is believed that early diagnosis and an early speech therapy approach are becoming increasingly important. The article provides information about speech therapy exercises, psychological approaches and innovative methods of therapy. The results of the study can be useful to parents, teachers and speech therapists in solving speech problems.

Keywords: speech, ontogenesis, etiology, asphyxia, dyslalia, speech disorders, speech therapist, correctional work.

KIRISH

Ta'lim – tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning I bob 3-moddasida:

- davlat ta'lim talablari-ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;
- tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;
- ta'lim-ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Nutq – bolaning atrof-muhit bilan muloqot qilishida, fikrlarini ifodalashida va ijtimoiy muhitga moslashishida asosiy vositalardan biridir. Ammo ba'zi bolalarda nutq rivojlanishida turli muammolar kuzatiladi. Bunday buzilishlar bolaning o'z fikrlarini to'g'ri bayon qilishiga, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishiga hamda jamiyatga integratsiyalashishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nutq buzilishlari tug'ma yoki orttirilgan sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Tug'ma sabablar orasida nevrologik kasalliklar, eshitish qobiliyatining buzilishi va genetik omillar bo'lsa, orttirilgan sabablar psixologik stress, noto'g'ri tarbiya yoki yetarli nutqiy muhitning yo'qligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nutq nuqsonlari sabablarini o'rganagan holda M.I.Dobrogayev nutq buzilishlari sabablari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatgan.

1. Oliy nevr faoliyati kasalliklari
2. Anatomik nut apparatida patologik ozgarishlar
3. Bolalikda tarbiyaning yetishmagabligi
4. Organizm umumiy nevropatik holati.

M.E.Xvattsev nutq nuqsonlarini kelib chiqish vaqtiga muvofiq prenatal, natal, postnatal davrlarga ajratadi hamda ekzogen va endogen ta'sirlarning me'yordagi nutq rivojiga salbiy ta'sirlarini tasniflaydi. Muallifning fikriga ko'ra prenatal davrdagi quyidagi ta'sirlar nutq rivojiga salbiy ta'sir etadi:

- homilaga kislород yetishmasligi. Bu toksikoz, nefropatiya, tushish xavfi, yo'ldosh patologiyasi, yuqori qon bosimi va onaning somatik kasalliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin;
- homiladorlik paytida onaga ta'sir qiladigan turli xil virusli infektsiyalar;
- yiqilish, ko'karishlar yoki jarohatlar, ayniqsa qorin bo'shlig'i;
- agar ona va chaqaloqning qon guruhlari mos kelmasa;
- erta tug'ilish yoki kech qolish;
- homiladorlik paytida chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish;

- homiladorlikning boshida qabul qilingan ba'zi dori-darmonlarni, shu jumladan saratonga qarshi antibiotiklar, ototoksik dorilar, bilvosita antikoagulyantlar va antidepressantlarni qabul qilish;
- abort qilishga urinish;
- haddan tashqari kuchlanish, kimyoviy moddalar yoki radiatsiya bilan ishslash kabi professional zararli omillar;
- homilaning kislorod ochligini keltirib chiqaradigan onaning stress.

Natal davridagi omillar:

- bosh miyaga qon quyilishi bilan tug'ilish travmasi;
- asfiksiya - miya uchun kislorod yetishmasligi;
- yangi tug'ilgan chaqaloqning vazni juda kichik (1,5 kg dan kam) va reanimatsiyaga muhtojligi;
- Apgar shkalasi bo'yicha past ball (bu holat tug'ilgandan keyin darhol baholanadi).

Postnatal davr:

- infektsiyalar, virusli kasalliklar, meningit, meningoensefalitni Markaziy asab tizimiga zarar yetkazishi, eshitish qobiliyatini buzilishi;
- ichki qon ketishiga olib keladigan miya shikastlanishi;
- yuz suyaklarining shikastlanishi;
- uzoq muddatli shamollahsh, o'rta va ichki quloqning yallig'lanishi tufayli eshitish qobiliyatini buzilishi va shu sababli nutqning rivojlanishiga ta'sir qilishi;
- eshitish qobiliyatini buzadigan ototoksik antibiotiklar (streptomitsin, neomitsin, kanamitsin, gentamitsin).

Dunyo miqyosidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra nutq nuqsonlarining soni ko'payib bormoqda, shuning uchun bolalar va o'smirlarda nutq kamchiliklarini oldini olish dolzarb muammo bo'lib qolgan. Bizning mamlakatimizda nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy va pedagogik ishga katta e'tibor qaratilmoqda. Nutq kamchiliklarini erta aniqlash, korreksion ta'lim va tarbiyani tashkil qilish va ta'lim-tarbiyaning uslublari masalasini hal qilish bo'yicha ma'lum miqdorda yutuqiarga erishilgan. Ko'p hollarda maxsus ta'sir etish yo'llari orqali bolalardagi turli xil nutq patologiyalarini oldini olishga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv-psixik kasalliklami oldini olish bilan uzviy bog'liqidir. Bu davolash, pedagogik va ijtimoiy ta'sirlami o'z ichiga olgan kompleks tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Nutqning me'yorda shakllanishi uchun miya yarim sharlasr po'stlog'inining ma'lum bir yetuklikka erishishi, artikulyar apparatning shakllanishi va eshitishning saqlanib qolishi kerak. Yana bir ajralmas shart - bu bolaning hayotining birinchi kunlaridan boshlab to'liq huquqli nutq muhiti. 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan nutqni rivojlanirishning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Nutq buzilishi bo'lgan bolalar - bu normal eshitish va buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og'ish bo'lgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma-xil bo'lib, ular talaffuzning buzilishi, nutqning grammatik tuzilishi, lug'atning kambag'alligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo'lishi mumkin.

Og'irlik darajasiga ko'ra, nutq buzilishlarini davlat umumta'lim maktabida o'qishga to'sqinlik qilmaydiganlarga va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan og'ir kasalliklarga bo'lish mumkin. "Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bu ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy faziatiar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin". Biroq, ommaviy bolalar muassasalarida nutqi buzilgan bolalar ham alohida yordamga muhtoj. MTTlar tarbiyalanuvchilarining

ko‘pchiligidagi nutqida nuqsoni mavjud bo‘lib, ularda bolalarga logoped va ruxshunos yordam beradi. Nutqni tuzatishdan tashqari, bolalar xotira, diqqat, fikrlash, umumiyligi va nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan shug‘ullanadilar, savodxonlik va matematikani o‘rgatadilar. Umumta’lim maktablari qoshidagi logopediya shahobchalarida mакtab yoshidagi bolalarga yordam ko‘rsatilmoqda. Nutq markazlariga talaffuzida nuqsoni bor, nutqi rivojlanmaganligi sababli yozishda nuqsoni bor, duduqlangan bolalar yuboriladi. Maktabdagi logopedik mashg‘ulotlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oilaning to‘g‘ri nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashga qanchalik hissa qo‘shishiga bog‘liq.

Og‘ir nutq buzilishlarida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o‘qitish mumkin emas, shuning uchun og‘ir nutq buzilishi bo‘lgan bolalar uchun maxsus bolalar bog‘chalari va maktablar mavjud. Og‘ir nutq buzilishining asosiy belgisi - bu oddiy eshitish va buzilmagan aql bilan og‘zaki aloqa vositalarining aniq cheklanishi. Bunday kasalliklardan aziyat chekadigan bolalarda nutq zaxirasi kam, ba’zilari esa umuman gapirmaydi. Bu holatda boshqalar bilan muloqot juda cheklangan. Ushbu bolalarning aksariyati ularga aytilgan nutqni tushunishga qodir bo‘lishiga qaramay, ularning o‘zlari boshqalar bilan og‘zaki muloqot qilish imkoniyatidan mahrum. Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyasiga olib keladi: ular tengdoshlari bilan o‘yinlarda, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatidan to‘liq yoki qisman mahrum.

Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimi kompleks tarzda olib borilishi, ishning samarali muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi.

Korreksion ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi, ya’ni:

- Bolalarni kompleks tarzda erta tashxislash;
- Mashg‘ulotlar jadvalini oqilona tuzish;
- Har bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalashtirish;
- Frontal mashg‘ulotlarni rejalashtirish;
- Mashg‘ulotlarni kerakli jihozlar va ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minalash;
- Logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorligi orqali amalga oshirish.

Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruuhlarida nutq bilish faoliyati, emotsiyonal-irodaviy sohalardagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta’sirlar kompleksining o‘z vaqtida va aynan bir xil qo‘llanishiga bog‘liqdir. Tuzatuvchi ta’lim ishlarining barcha komplekslarini o‘tkazish umumydastur talablarini bajarish bilan birga, nutq nuqsonlarini tuzatish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarni qo‘sib olib borishni talab qiladi. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar guruuhlari uchun oddiy kun tartibidan farq qiladigan maxsus kun tartibi ishlab chiqilgan. Jumladan, unda logoped tomonidan o‘tkaziladigan umumiyligi, guruhlardagi va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, kechki vaqtida tarbiyachining logoped topshirig‘i bo‘yicha guruuhlarda va alohida bolalar bilan nutqni tuzatish yuzasidan maxsus saatlar ajratilgan. Tarbiyachi o‘z ishini dastur talablariga va bolalarning nutqiy imkoniyatlarini hisobga oлган holda rejalashtiradi. Tarbiyachi bola nutqining shakllanishidagi individual kamchiliklarni bilishi, nutqning talaffuz va leksiko-grammatik jihatidan nuqsonlarini tushunishi, ta’lim va ta’limdan tashqari faoliyat jarayonida har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olishi shart. Logoped bilan hamkorlikda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bo‘yicha mashg‘ulotlar, nutqni o‘stirish, atrof-muhit bilan tanishtirish va savod o‘rgatish ishlari olib boriladi. Bundan tashqari, logopedik ta’sir ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida logopedik ta’sirning asosiy maqsadi bilan tanishib chiqamiz:

- nutq tovushlarni bilishi va ularning idrokida aralashtirib yubormaslik kerak;
- bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo‘yicha ajrata bilishi;
- normal talaffuz qilingan tovushdan noto‘g‘ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi;
- o‘zi talaffuz qilgan tovushni eshitib, nazorat qila bilishi va sifatini baholashi;

- tovushning normal akustik effektini hosil qiluvchi artikulatsion holatini bajara olishi;
- nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinni foydalanish.

Logopedik mashg'ulotlar haftasiga 3 marta muntazam ravishda o'tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg'ulotlarni har kuni 2-3 marta 5-15 daqiqa davomida o'tkazish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Og'ir nutq buzilishlari uchun xarakterli xususiyat uning umumiy rivojlanmaganligi bo'lib, u nutqning tovush va leksik, grammatic jihatlarining pastligida namoyon bo'ladi. Natijada og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalarning aksariyatida fikrlash, nutqni umumlashtirish, o'qish va yozishda qiyinchiliklar mavjud. Bularning barchasi aqliy rivojlanishning birlamchi saqlanishiga qaramay, fan asoslarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Muloqotga urinishda o'zining pastligi va kuchsizligini anglash ko'pincha xarakterdag'i o'zgarishlarga olib keladi: izolyatsiya, negativizm, zo'ravon hissiy buzilishlar. Ba'zi hollarda apatiya, befarqliq, letargiya, e'tiborning beqarorligi mavjud. Bunday reaktsiyalarning zo'ravonligi bolaning joylashgan sharoitlariga bog'liq. Agar uning nuqsoniga e'tibor qaratilmasa, nutqining noto'g'riliqi beozor so'zlar bilan ta'kidlanmasa, ular uni tushunishga va jamiyatdagi qiyin vaziyatni engillashtirishga har tomonlama harakat qiladilar, bolaning shaxsiyatida reaktiv qatlamlar kamroq bo'ladi. Odatda, to'g'ri pedagogik yondashuv bilan bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtiradilar, maktab bilimlarining zarur miqdorini o'rGANADILAR. Nutqning rivojlanishi bilan birga, qoida tariqasida, psixikadagi ikkilamchi o'zgarishlar ham yo'qoladi.

Nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik bu - dislaliya. Dislaliya grekcha so'zdan olingen bo'lib, dis-buzilish, laliya-nutq degan ma'nolarni anglatadi. Bu kasallik yengil formadagi nutq buzilishi hisoblanib, uni vaqtida to'g'ri tashxislash va davolash orqali bartaraf etish mumkin.

XULOSA.

Nutq kamchiligiga ega bolalarni tarbiyalash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o'z xulq-atvorini va o'zining mavqeyini anglashi lozim. O'zaro tushunish, rag'batlantirish, o'zaro hurmat, tartibni saqlash, oila a'zolari o'rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir nutq kamchiligiga ega bolalardagi psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy rol o'ynaydi. Xususan, ushbu holat duduqlanuvchi o'quvchilar uchun dolzarbdir. Bolalar nutqiy nuqson bilan bog'liq shaxsiy kechinmalar, nutq qo'rquvi, nutqiy muloqotni talab qiluvchi vaziyatdan qochish va hoakazo holatlar kuzatilsa, logoped o'z ishida muhim psixoterapevtik aksentni kuchaytirishi lozim. Bu aksent va psixoterapiya shakllari har doim bola yoshiga va uning individual psixologik ta'sirlanish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Nutqiy nuqson belgilarini yaxshi bilish va hisobga olish zarur, shuningdek, uning to'liq kompensatsiyasi ham e'tiborga olinadi. Buning natijasida har bir bolani har tomonlama sinchikovlik bilan o'rganish, nutq kamchiligiga ega bolalar korreksion ta'lim-tarbiyasining yuqori darajadagi variantini tuzishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilogopedning guruhdagi barcha bolalaming individual xususiyatlarini aniq bilishi nuqsonni bartarf etish imkoniyatini belgilashga yordam beradi, buning uchun kerakli muddatlarni o'rganish, umumta'lim maktablari dasturi bo'yicha o'qitishga qarab oldindan baho berish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Akhunjonov M. "Logopediya" – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
2. Azimova N.A. "Nutq buzilishlari va ularni korrektsiya qilish metodikasi" – Toshkent, 2010.
3. Masturabekova G. "Bolalarda nutq rivojlanishi va uning buzilishlari" – Toshkent: Fan, 2015.

INTERNATIONAL
CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV
"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"
Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated December 27, 2024

4. Tikhonova L.A. "Logopediya: diagnostika va nutq buzilishlarini korrektsiya qilish" – Moskva: Akademiya, 2013.
5. Filicheva T.B., Chirkina G.V. "Logopediya: korreksion ishlar tizimi" – Sankt-Peterburg, 2010.
6. Safarova Z.M. "Bolalarda nutq buzilishlari va ularni korrektsiya qilish usullari" – Ilmiy jurnal, 2021.
7. Nazarova N. "Bolalarda nutq rivojlanishida korreksion texnologiyalarning ahamiyati" – Pedagogika va psixologiya jurnalı, 2019.
8. Kuzmina I.V. "Zamonaviy yondashuvlar bolalardagi nutq buzilishlarini korrektsiya qilish" – Вопросы логопедии, 2018.